

SAID AHMAD HIKOYALARIDA INSON VA MUHIT TALQINI

Imomqulova Gulchehra Norboboyevna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi
gulimomkuova@gmail.com

Annotatsiya. O'zbek adabiyotida turli janrlarda ijod etgan iste'dodli adib Said Ahmadning hikoyalarida xarakter yaratish an'anasi, uning qalb iztiroblarining badiiy ifodasi haqidagi qarashlarni, ijodkorning janr taraqqiyotidagi o'rni va mahorati haqidagi tushunchalar qayd etildi. Adibning istiqbol yillarida yaratgan asarlarining badiiy mohiyati, undagi badiiy ifoda shakllarining o'ziga xosliklari haqida so'z yuritildi.

Kalit so'lar: adabiyot, inson, muhit, xarakter, tasvir, mahorat, ijodkorlik.

SAİD AHMED'İN HİKAYELERİNDE İNSAN VE ÇEVRE YORUMU

İmamkulova Gulchehra Norboboevna,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğretmeni

Özet. Özbek edebiyatında çeşitli türlerde eserler vermiş olan yetenekli yazar Said Ahmed'in hikâyelerinde karakter yaratma geleneği, gönlündeki acıların sanatla ifade edilmesine ilişkin görüşler, türün gelişmesinde yaratıcının rolü ve becerisine ilişkin görüşler kaydedilmiştir. Yazarın bağımsızlık yıllarında yarattığı eserlerin sanatsal özü, sanatsal ifade biçimlerinin özellikleri tartışıldı.

Anahtar kelimeler. Edebiyat, insan, çevre, karakter, imaj, beceri, yaratıcılık.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЛИЧНОСТИ В РАССКАЗАХ САИДА АХМАДА

Имамкулова Гульчехра Норбобоевна,
преподаватель Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В рассказах талантливого писателя Саида Ахмада, творившего в различных жанрах узбекской литературы, зафиксированы традиции создания персонажей, взгляды на художественное выражение заветных желаний, роль и мастерство творца в развитии жанра. Обсуждалась художественная сущность произведений писателя, созданных в годы независимости, особенности форм художественного выражения в них.

Ключевые слова. Личность, среда обитания, характер, образ, умение, творчество.

IN THE STORIES OF SAID AHMAD MAN AND THE ENVIRONMENT INTERPRETATION

Imamkulova Gulchehra Norboboevna,
teacher of Uzbekistan-Finland pedagogical institute

Annotation. In the stories of the talented writer Said Ahmad, who created in various genres in Uzbek literature, the tradition of character creation, views on the artistic expression of his heart's desires, the role and skill of the creator in the development of the genre were recorded. The artistic essence of the writer's works created in the years of independence, the peculiarities of the forms of artistic expression in them were discussed.

Key words. Human, environment, character, image, skill, creativity.

Kirish. O'zbek adabiyoti asrlar davomida shakllanib kelar ekan, uning taraqqiyotini, poetik yangilanishlarini turli davrlarda, turli so'z san'atkorlarining ijodiy an'alarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. O'tgan asr xalqimiz tarixida juda murakkab davr sifatida tarix sahifalaridan o'rin oldi. Buning sababi, o'tgan asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ziddiyatlarning kuchayishi, xalqimizning ziyolilari qirg'in etilishi, jadidchilik harakatining yirik namoyondalariga qilingan "hujum"lar, jahon urushlari, bularning barchasi inson tafakkuridagi evrilishlarni kuchaytirdi. Uning qalb iztiroblarini, ruhiy-ma'naviy olamidagi ziddiyatlarning kuchayishiga zamin hozirladi. Adabiyotning esa, ma'lum bir davrning mezonlariga, mafkurasiga bo'ysindirilishi – bularning barchasi o'tmishimizning murakkab davridan dalolat berishi, tabiiy holdir. Ammo, shunga qaramasdan goh sokin, goh mahzun adabiyot yaratilaverdi. Bu esa xalqimizning adabiyotga, san'atga bo'lgan muhabbatining belgisi sifatida e'tirof ham etildi. Shuning uchun o'zbek hikoyachiligining taraqqiyotida iste'dodli adib Said Ahmadning o'ziga xos ijodiy an'alari, uslubi mavjudligi bir qator hikoyalari misolida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Iste'dodli adib Abdulla Qahhor o'z davrida adabiyotga kirib kelayotgan yosh ijodkorlarning asarlariga juda katta katta e'tibor bilan qaragan. Boshqa ijodkorlarning yaratgan asarlariga munosabat bildirganligi, tahliliy yondoshganligi kabi Said Ahmad ijodiga ham ijobiy munosabatda bo'ladiki, bu esa, uning turli mavzularda asarlar yaratishiga imkon beradi. A.Qahhor badiiyatga so'z san'atining mohiyati sifatida yondoshganligi, ayniqsa, Said Ahmad ijodiga ham ijobiy munosabatda bo'lib yutuq va kamchiliklarini haqqoniy bayon etgan.

Adabiyotshunos Umarali Normatovning "Ufqarning chin oshig'i" risolasida esa iste'dodli adib Said Ahmadning chorak asr kam ijodini, uning poetik xususiyatlarini, hayotni anglash va talqin etish tamoyillariga diqqat qilinganligiga e'tibor qaratildi. Shu bilan birgalikda, Said Ahmadning hikoyachilikdagi badiiy mahorati, adib hikoyalarining mavzu ko'lamining ifoda shakllari haqidagi qarashlariga munosabat bildirildi. Said Ahmadning hikoyachilik taraqqiyotidagi o'rni, uning ilk asarlarida ilgari surilgan qarashlarning yuzaga chiqish sabablari, teran tahlil etilganligi ta'kidlandi.

Adabiyotshunos Ulug'bek Hamdamning "Yangilanish ehtiyoji" maqolalar to'plamida esa, badiiy adabiyotning funksiyasi, asrlar osha yashash sabablari, inson qalb kechinmalarining mahsuli sifatida maydonga kelishi, san'atning boshqa turlaridan farqlanish sabablarining o'ziga xosligini sobiq sho'rolar davri va istiqloq davri bilan qiyosiy tahlillar asosida o'zbek adabiyotining keyingi yillardagi taraqqiyotini asoslashga intilganligiga diqqat qilindi.

Asosiy mazmuni. Said Ahmadning istiqloq yillarida yaratgan bir qator hikoyalarida, inson va muhit tushunchasi yetakchilik qilishi, buning sabablarini asoslash, ijodkorning hikoyachi nutqiga singdirilgan avtobiografik hayot tarzining ifodalanishiga, badiiyatga singdirilishga ham tahliliy yondoshildi.

Adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam qayd qilganidek: "Olamdagi jamiki hodisalar zamirida haqiqatga intilish yotadi. Jumladan, adabiyotning ham. Biroq u haqiqatga fizika yoki tibbiyot fani singari qo'l bilan ushlab mumkin bo'lmagan sabablari, shunga yarasha uslublar vositasida emas, balki ko'ngilda tug'ilib o'sib, qayoqqadir shiddat bilan talpinayotgan tabiiy qudrat – buyuk ehtirosning bag'rida, u orqali intiladi... Bu adabiyot misoli bir ummon va uning sirti qanchalik sokin esa, ichi shunchalik dolg'ali" [1, 16-17-betlar].

Ta'kidlanganidek, adabiyotning "sokin"ligi ham bejiz emas, uning qa'rida insoniyatning ming-ming yillik qadriyatlari, iztirob-u quvonchlari, murakkab hayotning turfa xil xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirib keladi. O'tgan asr adabiyoti ham bunday tushunchalardan xoli emas, chunki mafkuraviy tazyiqlar, so'z san'atining poetik xususiyatlarini teranlashishiga imkon bermaslikka harakat qilsada, ammo u o'zining zimmasidagi vazifani doimo odilona bajarishga intilib keldi. Bu jarayonda esa so'z san'atkorlarining mahorati, adabiyotga, san'atga bo'lgan sadoqati bilan ham asoslash mumkin. Ana shunday so'z san'atkorlaridan biri iste'dodli adib, o'zbek adabiyotining taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ijodkorlardan biri Said Ahmaddir.

Adibning ijodi haqida so'z yuritgan adabiyotshunos olim Umarali Normatov shunday yozadi: "Said Ahmad sevgi, sadoqat, yoshlik kuychisi. U bevosita ma'naviy axloqiy muammolarga bag'ishlangan bir turkum hikoyalarining muallifi. Uning bu mavzudagi asarlari qahramonlari g'oyat

xilma-xil kishilar: ularning birida mustaqil hayot ostonasiga endigina qadam qo'ygan, mehnat, ilk muhabbat, ilk bo'sa lazzatidan bahramand bo'lgan yoshlarni uchratsak, ikkinchisida hayotda adashib, shaxsiy hayotini boy berib qo'ygan noshud natovon kimsalalarga duch kelamiz; yana birida o'z shaxsiy huzur halovatidan voz kechib, o'zgalarga baxt, shodlik hadya etgan olijanab kishilarni ko'rsak, boshqasida faqat o'zini deb o'zgalarni qon qaqshatuvchi xudbinlarga ro'para kelamiz" [2, 13-bet].

Said Ahmad ham murakkab, juda og'ir hayot yo'lini bosib o'tgan so'z san'atkorlaridan biridir. Adibning asarlarida turfa xil xarakterlarni, kechinmalar ifodasini, ularning ba'zan zavq-shavq bilan hayotga, yashshga intilganligini, ba'zan esa o'z qilmishlariga ko'ra afsus va nadomatda hayotini qurbon etishini kuzatish mumkin. Yozuvchining salkam chorak asr kam ijodi, bugungi adabiyotimizning mohiyatini, uning tadrijiy taraqqiyotini anglashga keng imkon beradi. Adibning turli mavzudagi asarlarida inson va hayotni anglashga intilayotgan, muhit va uni qurshab turgan borliqqa teran nigoh tashlashga intilayotgan qahramonlarning badiiy olami juda teran talqinlarda o'z ifodasini topgan.

Buyuk so'z san'atkori Abdulla Qahhor qayd qilganidek: "Bu sof hayot, yozuvchining qalbini o'rtaqan, ardoqlagan, unga ilhom bergan hayot tasviri, og'ir va shu bilan birga go'zal, mungli va shu bilan birga farahbaxsh, musibatga to'la va shu bilan birga odamga quvvat beradigan umid, uning boshini "toshdan" qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir" [3, 331-bet].

Darhaqiqat, Said Ahmad ijodining asosida, turli davrlarda hayot kechirgan, turfa xil sharoitni o'z boshidan o'tkazgan minglab, millonlab insonlarning kechinmalari, ruhiy-ma'naviy olamidagi evrilishlar o'z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Adibning rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, qissa-yu romanlari, xushchaqchaq komediyalari bilan hozirgi o'zbek adabiyotida munosib o'rin egallaydi. Said Ahmad, avvalo, hikoyanavis sifatida tanildi va bu janrda barakali ijod qildi. Uning "Onajonlar", "Turnalar", "Cho'l burguti", "Muhabbatning tug'ilishi", "Hayqiriq", "To'y kechasida" singari o'nlab hikoyalari o'zbek hikoyachiligining taraqqiyotida poetik mukammal asarlar qatoridan o'rin olib kelmoqda. Adibning birinchi hikoyalar to'plami "Tortiq" 1940-yilda yaratilgan bo'lsa, keyinchalik o'nlab asarlar yaratdiki, bularning barchasi o'ziga xos talqin xususiyatiga ega bo'lgan asarlardir. Yozuvchining tinimsiz izlanishlari, hayotni, insonni anglash yo'lidagi intilishlari, ustoz yozuvchilar ijodi va jahon adabiyotini o'rganishi yetuk asarlar yaratish imkonini kengaytirgan.

Said Ahmadning iste'dodli va serqirra ijodkor bo'lib yetishishida, G'afur G'ulom va Abdulla Qahhorlarning o'rni beqiyos ekanligini ham qayd etish lozim. Said Ahmadning o'zi bu haqda: "Aslida meni hajv yo'lga G'afur G'ulom boshlab kirgan. Ma'lumki, G'afur aka o'ttizinchi yillarda hajv janrida barakali ijod qildi. Ixcham, kulgili hikoyalarning juda yaxshi namunalarini yaratdi. Men shu hikoyalar ta'sirida adabiyotga kirganman. Keyinchalik bu buyuk yozuvchi bilan yaqindan tanishganim, undan rosmana ijodiy ta'lim olishim hajvga bo'lgan intilishimga juda katta yordam berdi.

Said Ahmadning ko'p hikoyalarida, xususan, "Cho'l shamollari", "Cho'l oqshomlari" turkumlariga kirgan hikoyalarni shu janrning yetuk namunalari deyish mumkin. Adib bu hikoyalarida jonli, tiniq obrazlar yaratish bilan birgalikda, voqelikdagi yangiliklarni, oddiy kishilar hayotidagi o'sish-o'zgarishlarni ularning o'ziga xos fazilatlarini badiiy talqin etgan. Adib o'zining "Cho'l hikoyalari"ni "cho'llarda boshlangan yangi hayot va yangi odamlar qissasi" deb atashi ham bejiz emas, chunki bunday ohanglar o'sha davr uchun xos xususiyat edi.

Said Ahmad mohir hikoyanavis sifatida 50-yillardayoq tanilgan edi. Yozuvchining bir qator hikoyalarni lirik, ba'zi hikoyalari lirik-publitsistik xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xos uslubning mahsuli sifatida maydonga kelgan. Ularda yozuvchi xalqimizning qanoat va matonatini, og'ir va murakkab sharoitlardagi bardoshini, olijanob tuyg'ularini ulug'ladi. Muhabbat, mehnat shijoati, urush asoratlardan yorug' yuz bilan chiqqan iroda, qismat va shukronalik tuyg'ularini badiiy kashf etgan. Shu bilan bir qatorda, insonning qalb iztiroblarini, shafqatsiz hayotning murakkab yo'llarini ham mahorat bilan tasvirga singdirgan.

Said Ahmadning istiqlool yillaridagi hikoyachiligi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Said Ahmad istiqlool yillarida ham hayotdagi o'zgarishlar haqida ko'plab maqola, badialar, quvnoq yumoristik, jo'shqin lirik hikoyalar bilan bir qatorda, shaxs qismati, uning fojialari, muhitning qurboniga aylangan inson xarakterining turli rakurslarda talqin etganligini kuzatish mumkin.

Istiqlool yillarida yaratgan asarlari orasida, ayniqsa, "Qorako'z Majnun" hikoyalar to'plamidan o'rin olgan "Qorako'z Majnun", "Sarob", "Borsa kelmas darvozasi", "Oftob Oyim", "Azroil o'tgan yo'llarda", "Ta'qdir, ta'qdir, muncha shafqatsizsan", "Ot bilan suhbat", "Rostgo'y posbon" kabi bir qator hikoyalari alohida ahamiyatga ega. Istiqlool tufayli odamlar qismati va ruhiyatidagi evrilishlar haqida bahs etuvchi "Qorako'z Majnun", "Ot bilan suhbat", "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyalari qatog'on davri xotiralari bilan bog'liq hikoyalar sifatida e'tirof etiladi.

"Borsa kelmas darvozasi" kabi hikoyalari, adibning o'zi yaqindan muloqotda bo'lgan ustoz adiblar, tengdoshlari va o'z hayot va ijod yo'li haqidagi xotira-esselardan iborat deb qarash ham mumkin. "Oftob Oyim" hikoyasida Vatanga bo'lgan muhabbatni, Ona-zaminga bo'lgan sadoqatni o'ziga xos tarzda aks ettirgan. Lagerda do'st tutingan hikoyachi bilan Yapon asiri Dyun orasidagi samimiy muloqotlar, suhbatlar, samuray Dyunning Sudze qismatiga oid afsona-rivoyatnoma hikoyasi, kamikadze burchini o'tay olmagan bu yigitning ruhiy iztiroblari va halokati o'quvchi qalbini larzaga soladi.

Bu hikoya nafaqat, o'zbek xalqi mehrini, balki Yapon xalqi mehrini qozondi. "Yarim asrdan ko'p vaqt mobaynida ko'ngil qatida yapon asirlari xotirasini saqlab kelib, ular haqida ajoyib hikoya yozgan janob, Said Ahmaddan bag'oyat minnatdorman-deb yozadi, Yaponiyaning Favqulodda va Muxtor elchisi bo'lgan Kyoko Nakayama.

Adabiyotshunos Umarali Normatov adibning ushbu hikoyasiga quyidagicha baho bergan. "Qanday baxt: o'zimiznigina emas o'zgalarni ham maftun etgan, hayajonga solgan yangi asr o'zbek hikoyasining ilk yetuk, go'zal namunasini yaratish 81 yoshli ardoqli adibimiz Said Ahmadga nasib etdi" [2,11-bet].

Darhaqiqat, adibning yillar davomida qalb qa'ridan o'rin olib kelgan, turli hayotiy zarbalarining mahsuli bo'lgan qarashlar asta-sekin badiiylik mezonlariga bo'ysindirildi va bir-biridan qolishmaydigan falsafiy asarlarning yaratilishiga zamin bo'ldi. Yozuvchining bunday mavzudagi asarlarining asosiy qismidagi hikoyasi muallifning o'zi ekanligini ham unutmaslik lozim. Balki, shuning uchun ham, iste'dodli adib, bu kabi hikoyalarni ham hayotining keyingi damlarida yaratganligi bejiz emasdi, chunki bu mavzuda qalam tebratish naqadar murakkab bo'lganligini ham ta'kidlash jozdir. Yozuvchining istiqlol davrida yaratgan turli mavzudagi hikoyalarida ham ijodkorning juda katta mahorati va ijodning teran anglash xususiyati mujassamlashganligini kuzatish mumkin.

Dunyo adabiyotida bo'lgani kabi, o'zbek adabiyotida ham ota va farzand o'rtasidagi ziddiyatlar qalamga olingan. Adib ham xalqimizning xuddi shu og'riqli nuqtasi haqida oradan yarim asrdan ortiq vaqt o'tib, badiiyat qonuniyatlariga tayangan holda qalam tebratadi. Sobiq sho'rolar imperiyasining ota va farzand orasiga solgan nizolari, milliy qadriyat, an'analarni yo'qotishga bo'lgan urinishlarini qator hikoyalarida qalamga oladiki, bu esa inson ma'naviy olamini, uning botinidagi ziddiyatlar asosida obrazlar olamini badiiy talqin etgan. Ilmsizlik, johillikning zamirida savodsizlik sababli shunday yo'l tanlanishi juda asosli yoritib berilgan. Shu jihatdan, ota va farzand o'rtasidagi ziddiyatlarni davr mafkurasi sun'iy o'ylab topgan, sobiq sho'rolar jamiyati o'zining bu usulidan unumli foydalanganligini ham qayd etish lozim. Bu esa inson ma'naviy olamiga salbiy ta'sir etib qolmasdan, jamiyatdagi ulkan fojialarni ham yuzaga chiqardi.

"Sarob" hikoyasi haqida so'z yuritgan o'zbek adabiyotshunos olimi, filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov shunday yozadi: "Sarob" hikoyasida bu g'oya yanada keskinroq va birmuncha oshkora tarzda ifodalanadi. Asardagi voqea – o'g'il bilan ota orasidagi mudhish munosabatlar bu yorug' dunyoning naqd do'zaxi ichida – mustabid tuzum qurbonlari – mahbuslar jam bo'lgan Jezqozg'on lageridan birida o'z intihosiga yetadi" [2, 6-bet].

Adabiyotshunos olim alohida qayd etgani kabi asar voqealari mahbuslar jageri bo'lgan Jezqozg'on lagerida adolatsizlik qurboni sifatida "jinoyatchi" hisoblangan Olimjon domla o'n besh yildan ortiqroq hayotini iztiroblar orasida o'tkazib yurgan bir vaqtda uning o'g'li, otasini "sotgan"i uchun qahramonga aylangan farzandini ham olib keladi. Bu holatlar hikoyada juda mahorat bilan, psixologik vositalar asosida talqin etilgan va har ikki qahramon ma'naviy-ruhiy olamidagi iztiroblar asosida, ularning kechinmalari talqin etilgan.

Natijalar va tushunchalar. O'zbek adabiyotining yetuk vakili, turli janrlarda asarlar yaratgan adib Said Ahmadning keyingi yillardagi hikoyalarida o'ziga xos mavzu ko'lami, talqin ifodasi, poetik shaklga singdirishdagi badiiy mahorati ochib berildi. Said Ahmadning uzoq yillik ijodiy faoliyati insonni anglash, uning badiiy siymosini yaratish bilan dialektik birlikda hayotning murakkab qirralarini badiiy talqin etishdagi ijodiy jarayonlariga e'tibor qaratildi.

Said Ahmadning turli mavzudagi asarlari bilan bir qatorda hikoyachilik taraqqiyotidagi o'rni ham juda katta iste'dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Bu esa ijodkorning hayotni anglash, bu xususiyatlarni badiiy qahramon ruhiyatiga singdirish jarayonlarida yanada teranlik kasb etganligi tahlil asosida yoritildi.

Xulosa. Har bir davrning murakkab tamoyillari mavjud bo'ladiki, uning turfa xil qirralarini badiiy kashf etish so'z san'atkoridan juda katta badiiy mahoratni talab etadi. Ana shunday murakkab xarakterlarni badiiy kashf etishda Said Ahmadning ijodiy mahoratini tahlil qilish, keyingi davr nasriga ijodiy yondoshuvlarni yanada teranlashtirishga asos bo'lishi tahlil asosida ko'rsatildi.

Xullas, iste'dodli adib Said Ahmadning hikoyalarida inson qismati, uning fojialari, ruhiy-ma'naviy olamidagi evrilishlar haqqoniy talqin etilgan. Bu talqinlar zamiridagi poetik ifoda shakllari, insonning o'zligini anglashga, hayotning mohiyatini teran his etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. Илмий-адабий нашр. – Тошкент, Фан, 2007. – 196 б.
2. Норматов У. Уфқларнинг чин ошиғи (Сайд Аҳмаднинг ижодий йўли, адиб билан суҳбатлар). – Тошкент, "Yurist-media markazi", 2008. – 96 б.
3. Қахҳор А. Асарлар. Олти томлик. Олтинчи том. – Тошкент, 1971. – 432 б.
4. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academicia: An International multidisciplinary Research journal* ISSN222-49-7137. *Impact Faktor SJIF*, 7, 498-501.
5. Azizovna Y.S. [Study of folktale in literature and its relation to the epic genre](https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065_Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf). *Central European Management Journal* 31 (No. 03 (2023)), 476-482
https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065_Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf
6. Buriyeva, F. (2024). Shawkat Rahman's Translation Skills. *Miasto Przyszłości*, 55, 522-524.